Temuriylar tarixi davlat muzeyi 22 yoshda!

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi milliy uslubda bunyod bo‘lgan muhtasham bino hisoblanadi. Ushbu maskan ziyoratgoh bo‘lishi bilan birga, ilmiy tadqiqot muassasasi hamdir. Binobarin, Temuriylar davri tarixini izchil o‘rganayotgan tarixchi olimlar, ayniqsa yosh sharqshunos olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar butun dunyo temurshunoslari tomonidan e’tirof etilmoqda.

18-oktabr – Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil topgan kun. Ushbu sana munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O‘zR FA Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi,Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi Toshkent viloyati filiali bilan hamkorlikda muzeyning 22 yilligiga bag‘ishlangan **“Milliy o‘zlik va g‘urur koshonasi”** mavzuida davrasuhbatio‘tkazildi. Tadbirni O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi direktori va Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi raisi, Xurshid Fayziyev tabrik so‘zi bilan ochib berdi. So‘ng Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi Toshkent viloyati muassasasi raisi Muhabbat Shoyusupova muzeyning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o‘rni haqida so‘zladi.

Muzey ma’muriyati ushbu davra suhbati bilan “Ustoz-shogird” an’analarini rivojlantirish yo‘lida muzeyda tasviriy san’at asarlarini bunyod etgan ustalarni yosh avlod bilan tanishtirishni maqsad qilgan. Shu munosabat bilan Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti hamda Respublika rassomlik kolleji fidoyi ustozlari - Toyirjon Boltaboyev, Abdulaziz Akbarxo‘jayev, Fathiddin Shobarotov, shuningdek, o‘quvchi-talabalari taklif etildi.

Muzey qurilishidagi ijodiy jarayonlar haqida xattot, rassom, naqqosh, ganchkor va yog‘och o‘ymakor ustalarning dil so‘zlari tinglandi.

O‘quvchi va talabalar taassurotlari haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildirishdi. Shuningdek, tadbir

ishtirokchilari tomonidan muzey bo‘ylab ekskursiyalar tashkil etilib, esdalik uchun fotosessiyalar o‘tkazildi.